

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash va amalga oshirish jarayoni pedagoglardan insoniylik, tashabbuskorlik, faollik, o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari tengligi va yana ko'plab ijtimoiy faollik xususiyatlarini talab etadiki, bu talab pedagog-o'qituvchilar zimmasiga bir qator ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqi.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. //Begmatov E., Madvaliev A. va boshqalar.; – II jild. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 606 b.
3. Isakulova N. METHODS OF USING COURSES OF OPEN EDUCATION IN IMPROVING MEDIA OF COMPETENCE OF STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH) //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
4. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 186 b.
5. Макаренко А.С. Сочинения: 8 т. Т. 5 / Макаренко А.С. – М.: 1985. – 333 с.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA BOSHQARUV FAOLIYATINING KOGNITIV TAHLILI

Karimova M.M., TDPU o'qituvchisi
Vaspidinova N.A., TDPU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rahbarlarining samarali boshqaruv faoliyati algoritmining kognitiv tahlili haqida ma'lumotlar yoritilgan

Kalit so'zlar: tizim, algoritim, rahbar, faoliyat, funktsiya, talab, ta'lim muassasasi.

Rahbarlarining asosiy funksiyasi ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muassasaning xayotiy faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqaruv yo'nalishidagi masalalarning ijobiy yechimini topish, hal etish hisoblanadi. Alohida ta'kidlash zarurki, boshqaruv faoliyati yoki ixtiyoriy faoliyat inson-inson munosabati, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar shaklida, ya'ni shaxsning ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o'zaro aloqalar shaklida tahlil qilinadi va o'rganiladi. Faoliyat maqsadi ob'ektiv bo'lib, o'z o'rnida shaxs tomonidan belgilanadi va u faoliyatning asosiy komponenti hisoblanadi [5].

Shuningdek, faoliyat sub'ektni ma'lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsad ifodalanadi. Ma'lumki, malaka oshirish tizimida boshqaruv faoliyati sub'ektlar tomonidan lavozimi yo'nalishidagi funktsiyalarini bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi.

Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti- harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida ta'lim muassasasi rahbarining maqsadga yo'naltirilgan funktsiyalarining strukturalari boshqaruv predmetlari orqali belgilanadi. Demak, malaka oshirish tizimida boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali belgilanadi [3].

Agar maqsad o'zgarmasa, u belgilangan vaqtdagi sharoitlar hamda harakatlar tarkibi o'zgarib boradi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat mavjud bo'lgan boshqaruv funksiyalarining ma'lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi. Malaka oshirish tizimi muassasani boshqarish funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, funksiyalarining mazmun-mohiyati va vazifalari inobatga olinadi [2].

Umumiy maqsadlarga erishishda mazkur funksiyalarni amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va konuniyatlariga asosan amalga oshiriladi. Ob'ektiv boshqaruv faoliyati faqatgina maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning to'liq to'plami yoki harakatlar zanjiri shaklida mavjud bo'ladi. Mavjud bo'lgan mazkur zanjir boshqaruv algoritmini ifodalaydi.

"Algoritm" so'zi jahon ilm-ma'rifatining buyuk namoyandasi, bobomiz Muxammad ibn Muso al-Xorazmiyning nomi bilan bog'liq bo'lib, uning matematika fanini rivojlantirgan asarlaridan biri bo'lgan "Aljabr val muqobala" asari tufayli "Al-Xorazmiy" nomi lotincha transkripsiyada "Algoritm" shaklini olgan.. Boshqaruv algoritmi - bu ta'lim muassasa rahbari boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u yettita bosqich: pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va ob'ektiv baholash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish; kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish; ta'lim muassasa faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat, mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida yuqorida keltirilgan funksiyalarning bajarilishi amalga oshiriladi [1].

Rahbari boshqaruv faoliyati davomida o'z muassasasining faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonining holati, xodimlarning o'z vazifasiga bo'lgan munosabati, o'zaro munosabatlar, umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lam va samaradorligi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda tashkil etilayotgan darslarning sifati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi uchun zaruriy axborotlar to'plashi lozim [8].

To'plangan ishonchli axborotlar tahlil qilinishi va umumiy holatni o'rganilishi boshqaruv faoliyatini o'zgartirish, takomillashtirishga, ya'ni boshqaruv faoliyatining maqsadini belgilab olishga xizmat qiladi. Axborotlarga asoslangan holda, boshqaruv faoliyatining samaradorligini xam tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va shunga asosan uni takomillashtirish yo'nalishlari va muassasa faoliyatini yaxshilash uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilanadi [7].

Belgilangan vazifalarni xodimlarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek, kasbiy tajribalariga ko'ra taqsimlash amalga oshiriladi, ya'ni zarur hollarda muassasaning faoliyatini, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar jalb etiladi, shu asosda jamoa a'zolarining faoliyatlari muvofiqlashtiriladi. Mazkur jarayonlarda amalga oshirilgan ishlarning natijalariga va yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ta'lim muassasasining rivojlanish imkoniyatlari aniqlanib, belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'nalishida qarorlar qabul kilinadi [4].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, boshqaruv algoritmining mazmun-mohiyati boshqaruv funksiyalari va metodlarini

amalga oshirishda o'z ifodasini topadi va ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta'sir ko'rsatishning tartibi, ketma-ketligi, yo'llari va ularning tugallanish davrini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmadxo'jayev X.T., Mirdadayev K.M., Krzokov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. - Toshkent: "Ilm Ziya", 2004. 12-24 bet.
2. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. -Toshkent: "Sharq", 2002. 25-26 bet.
3. Djurayev P.X., Turg'unov S. T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - Toshkent: "Fan", 2006. 23 bet.
4. Yuldoshev J.F. Ta'lim yangilanish yo'lida. - Toshkent: "o'qituvchi", 2000. 16 bet.
5. Ismailova Z.K., Baybayeva M.X. Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 2-2. – S. 185-188.
7. Baybayeva M. X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli //integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2022. – T. 3. – №. 5. – S. 59-66.
8. Baybayeva M. X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4-2. – S. 403-411.

UCHINCHI RENESANS DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Mirzayeva F.O., TDPU dotsenti
Abdulaxadova E.M., TDPU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, o'zbek millatining o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o'rni, gender tenglik va oila masalalari yoritilgan bo'lib, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, ayol, gender tenglik, ma'naviyat, millat, an'ana.

Uchinchi Renesansga qadam qo'yayotgan yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida fidokorona mehnatda aynan ayollarimizning alohida o'rni borligi ko'ngilda faxr tuyg'usini yuksaltiradi. Zotan, ayoli e'zozlangan yurtida yashashning o'zi saodat, shunday emasmi?! "Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma'naviy darajasini avvalo shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi.

Bugungi kunda dunyoda "fidoyi" degan so'zga eng munosib bo'lgan Ona siymosi oldida ta'zim qilamiz. Hayotimiz quvonchi, xonadonlarimiz ko'rki bo'lmish aziz ayollarimiz sha'niga eng go'zal tilaklarimizni izhor etamiz. Ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo'jizasi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qoladi", – deydi hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biri sifatida qarab kelingan.

O'zbek millatining o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyosdir.